

Jizzakh State Pedagogical University



**Journal of Preschool
Education**

***The faculty of pre-school
education***

**ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR
O'QITILADIGAN TA'LIM MUASSASALARINI ZARUR
ADABIYOTLAR, METODIKA QO'LLANMALAR VA TURLI
KASBLARGA O'QITISH UCHUN USKUNA VA JIHOZLAR BILAN
TA'MINLASHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR.**

**Davlatova Shahnoza O'rol qizi. Jizzax
DPU, maktabgacha va boshlang'ich
ta'limda xorijiy til yo'nalishi 541-23-
guruh talabalari**

Annotasiya: Bugungi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu sababli ushbu maqolamda eshitishida, ko'rishida, aqliy va psixik rivojlanishida, nutqida, tayanch-harakat a'zolarida, autistik sohasida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash, hamda ularni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida amalga oshirilishi shart bo'lgan va davr talabiga mos pedagogik-psixologik hamda tibbiy -texnologik chora-tadbirlar haqida so'z boradi. Bundan tashqari bunday turdagi bolalar uchun zarur bo'lgan kerakli adabiyotlar va o'quv qo'llanmalarini tashkil qilish qoidalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Alifbo, muammoli izlanish, kichik tadqiqotlarni olib borish, debat, bahs-munozara, evristik suhbat, kichik guruhlarda ishlash muammoli izlanish, rolli o'yinlar, "hayotiy kompetensiya", "Nutqiy akselerasiya", "Nutqiy klaster", "Nutqiy tartib", nutq o'stirish, 1-yozuv daftari, 2-yozuv daftari, talaffuz, "Pedagogik texnologiya", video tasvir, metod, pedagogik o'yinlar, xulosa.

Annotation: Nowadays, the demand for inclusive education in our country is steadily increasing. Therefore, this article discusses the pedagogical-psychological and medical-technological measures that must be implemented in the process of teaching and educating children with hearing, vision, intellectual and psychological development, speech, motor skills, and autism spectrum disorders,

as well as orienting them towards vocational training, in accordance with contemporary demands. Additionally, it addresses the guidelines for creating necessary literature and educational materials for such children.

Keywords: Alphabet, problem-based research, conducting small-scale studies, debate, discussion, heuristic conversation, working in small groups, problem-based research, role-playing games, "life competence", "speech acceleration", "speech cluster", "speech regulation", speech development, 1st writing notebook, 2nd writing notebook, pronunciation, "Pedagogical technology", video recording, method, pedagogical games, conclusion.

Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta'lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillar va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog-olimlarning ko'p yillar davomida ta'lim tizimida: Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? – degansavolga ham javob qidirdilar. Natijada o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishdagi kabi aniq natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga erishish mumkin –degan fikr yuzaga keldi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi qo'yidagilardir:

Birinchidan, ta'lim siyosatida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish

masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unga pedagogik texnologiyalardan foydalanishsiz, ya'ni shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishsiz erishilmaydi. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Jumladan, bo'lajak surdopedagoglarni eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga yozuv va o'qishni o'rgatish metodlaridan foydalanishga tayyorlashda U.Y.Fayziyeva tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan tavsiyalaridan foydalanildi. Eshitishida muammosi bor bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishda tilga o'rgatish davrlarining vazifalariga amal qilish mligi F.U.Qodirovaning ilmiy izlanishida asoslab berilgan.

Olima karlar ta'limi amaliyotiga "hayotiy kompetensiya", "Nutqiy akselerasiya" tushunchalarini hamda "Nutqiy klaster", "Nutqiy tartib" tizimlarini olib kirdi. Jumladan, eshitishida muammosi bor bolalar ona tilini egallash davrlarining farqlanishi hamda nutq vositalari, shakllaridan foydalanish tartibi amaliyotga tavsiya etilgan. F.U.Qodirovaning eshitishida muammosi bor bolalarning predmetli amaliy faoliyatini tashkil etish orqali tilga o'rgatish tizimi amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda. Natijada tayyorlov, 1 – 5-sinflar uchun "Predmetli amaliy ta'lim" darsligi chop etilgan. Ushbu darsliklarda eshitishida muammosi bor bolalarni ona tiliga muloqot darajasida o'rgatish bo'yicha ish turlari aks etgan. Masalan, "Daktilog'zaki ayting", "So'rang", "Hisobot bering" va "Tavsiflang" kabilar har bir mavzuda mantiqiy ketma-ketlikda hamda o'zbek tili qonuniyatlari asosida berilgan. Olimaning ushbu ish tizimidan oliy ta'limda "Ona tili o'qitish maxsus metodikasi" modulini o'qitish usullarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarida foydalanildi. Korreksion pedagogika sohasida salmoqli ish olib borgan olim U.Y.Fayziyeva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida zaif eshituvchi bolalarga savodga o'rgatish tizimining grammatik asoslari va korreksion-pedagogik ish tizimi tadqiq etilgan. Natijada analizsintez (harf-tovush) metodi orqali eshitishida nuqsoni bor bolalarga savod o'rgatishning

didaktik va metodik ta'minoti takomillashtirilgan. Olima tomonidan birinchi marta O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun "Alifbe" darsligini o'zbek tilida nashr etilishi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni savodga tayyorlash jarayonlarini tizimli va samarali olib borilishida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari olimaning eshitishida muammosi bor bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktabinternatlari uchun "Nutq o'stirish" (1-, 2-, 4-, 5-sinflar), "Ona tili" (4 – 5-sinflar), "Matematika" (tayyorlov, 1-sinflar) kabi darsliklari nashr etilgan. Bundan tashqari U.Fayziyeva tomonidan 1-sinf o'quvchilari uchun chop etilgan "1-yozuv daftari", "2-yozuv daftari"da kar va zaif eshituvchi bolalarda husnixat malakalarini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. «Umumta'lim» va «Maxsus ta'lim» o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak.

Inklyuziv ta'limda ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotga tadbiq qilish murakkab bo'lib, ko'pchilik amaliyotchi olimlarning fikricha bu jarayon bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, inklyuziv ta'lim jarayonida bolaning ishtiroki to'la huquqiy ta'minlanishi kerak. Bunga ta'lim muassasasi ma'suliyatli hisoblanadi. Ikkinchidan, maxsus pedagogikaga oid adabiyotlar va tadqiqotlarda inklyuziv ta'lim bilan bog'liq muammolar muhokamasini yoki metodik ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishda uni qadrli fenomen shaklida ko'rib chiqish kerak. Chunki inklyuziv ta'lim rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning fikriga asoslanib, doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchidan, inklyuziv ta'limni ko'rib chiqishda ta'lim muassasalari holatini yaxshilovchi inklyuziv madaniyatni hosil qilish, inklyuziv siyosatni rivojlantirish va inklyuziv amaliyotni kiritish yo'nalishlarini tahlil qilish kerak.

To'rtinchidan, inklyuziv ta'limning muammosi uning tashkil etishning turli shakllarini o'rganishda o'z aksini topadi va ishtirokchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy, sog'lig'i kabi turli xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari bunday bolalar uchun tashkil etilgan inkuziv ta'lim maktablari va sinfxonalar shart sharoitlari to'laqonli bajarish majburiyati albatta shu muassasa direktorining zimmasiga yuklatilgan bo'ladi. Shu mezonga asosan o'sha ta'lim tashkiloti rahbariyatlari inkuzif ta'limga birlashtirilgan bolalarga nafaqat tibbiy balki pedagogik-psixologik,ular uchun o'quv qurollar va darsliklar ta'minoti, kerakli adabiyotlar, qolaversa eng so'nggi metodik qo'llanmalarga tayangan holda zamonaviy elektron uskunalar bilan to'ldirilgan qulay shar - sharoitlarni yaratmog'i lozim. Negaki Inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalar uchun eng so'nggi texnika va texnologiyalardan foydalanish ko'p jihatdan ularning individual ehtiyojlariga va qobiliyatlariga bog'liq. Ammo, umumiy holda, quyidagi texnologiyalar va uskunalar foydali bo'lishi mumkin

1. Assistiv texnologiyalar: Bu turdagi texnologiyalar maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarga o'qish, yozish, muloqot qilish va boshqa kundalik faoliyatlarni bajarishda yordam beradi. Masalan, ovoz chiqaruvchi klaviaturalar, Braille displeylari, nutq tanish texnologiyalari va boshqalar.

2. Ta'lim dasturlari va ilovalar: Maxsus dasturiy ta'minot va mobil ilovalar inklyuziv ta'limda katta rol o'ynaydi. Bu dasturlar o'quvchilarni interaktiv tarzda o'qitish, o'yin shaklida bilim olishga yordam beradi. Masalan, matematika, til o'rganish, mantiqiy fikrlash va boshqalar uchun mo'ljallangan dasturlar.

3. Interaktiv doskalar va planshetlar: Interaktiv doskalar va planshetlar ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Bu uskunalar orqali bolalar vizual va kinestetik usullar orqali bilim olishlari mumkin.

4. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): VR va AR

texnologiyalari o'quvchilarga murakkab mavzularni tushunishda va real hayot tajribalarini simulyatsiya qilishda yordam beradi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faollashtirishga xizmat qiladi.

5 Robototexnika va kodlash: Robototexnika va kodlash bo'yicha ta'lim bolalarga texnologiyalarni chuqurroq o'rganish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu soha o'quvchilarni kelajakda texnologik muammolarni hal qilishga tayyorlash uchun muhimdir.

6 Nutq va til terapiyasi uskunalari: Maxsus nutq va til terapiyasi uskunalari, masalan, AAC (Augmentative and Alternative Communication) qurilmalari, muloqot qiyinchiliklari bo'lgan bolalarga yordam beradi. Bu texnologiyalarni samarali qo'llash uchun, o'qituvchilar va pedagoglar ushbu texnologiyalarni to'g'ri tanlash va ulardan qanday foydalanishni bilishlari zarur. Shuningdek, har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlari inobatga olinishi kerak.

Pedagogika sohasida ko'pholatlarda "muammo" tushunchasi tashkiliy-pedagogik, psixologik, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Ma'lum bilimlar, noma'lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida masalani qo'yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik jarayonda imkoniyati cheklangan bola "muammo"ga emas, balki muammoli vaziyatga ro'para qilinadi. Qolaversa inklyuziv talim sohasida yana yangicha yondashuv asosida o'yinli texnologiyalar imkoniyati cheklangan bolalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stirishda keng foydalaniladi, masalan;. Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevositaishtirok etish uchun

dastlabki ko'nikmamalakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (M.: o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish imkoniyati cheklangan bolalarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratsa, o'quvchilarga ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

Pedagogik o'yinlar ham yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, imkoniyati cheklangan bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarning shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida imkoniyati cheklangan bolalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xulosam o'rnida shunda fikrga keldimki; o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turlituman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek inkuzif ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Shuningdek Zamonaviy ta'limnimni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishiiladi Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni

o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etagan holda olib boriladi. Zamonaviy texnologik va innovatsion metodlar o‘quvchilarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan salbiy fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.B.Goipova. inklyuziv ta’lim. gospiatal pedagogika Pedagogika universiteti hamda institutlarining maxsus pedagogika (faoliyat turlari bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar, inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar hamda ota-onalar uchun darslik.

2 .Mardonov, A. (2022). Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar pedagogikasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi nashriyoti.

3.Karimova, S. (2021). Maxsus ta'lim: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

4. Johnsen, B. H., & Skjærvik, R. (2020). Special Education: Trends and Issues. London: Routledge.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25-avgustdagi “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi PQ 4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish " terisidagi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2021 -yil 12-oktabrdagi 638-son qarori.